UO‘K 81

TARJIMADA SEMANTIK MUVOFIQLIK: TUSHUNCHANING LINGVISTIK TABIATI VA TARJIMA SIFATIGA TA’SIRI

Karimov Rustam Abdurasulovich,
Buxoro davlat universiteti
Fakultetlararo chet tillar kafedrasi dotsenti
ORCID: 0009-0000-0385-5256
rustamkarimov5594@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada tarjimashunoslikdagi muhim tushunchalardan biri bo‘lgan semantik muvofiqlikning lingvistik tabiati va tarjima sifatiga ta’siri tahlil qilinadi. Ingliz va o‘zbek tillari misolida semantik muvofiqlikning leksik, morfologik, sintaktik va pragmatik darajalari qiyosiy o‘rganiladi. Shuningdek, formal va dinamik ekvivalentlik, madaniy-kognitiv omillarning tarjima jarayonidagi o‘rni yoritiladi. Tadqiqot natijalari semantik muvofiqlikni ta’minlash tarjima mazmuni va sifatini saqlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *semantik muvofiqlik, ekvivalentlik, tarjima nazariyasi, dinamik ekvivalentlik, formal ekvivalentlik, pragmatik muvofiqlik, kognitiv lingvistika, madaniy kontekst.*

СЕМАНТИЧЕСКАЯ ЭКВИВАЛЕНТНОСТЬ В ПЕРЕВОДЕ: ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ПОНЯТИЯ И ЕГО ВЛИЯНИЕ НА КАЧЕСТВО ПЕРЕВОДА

Аннотация. *В статье анализируется семантическая эквивалентность как одно из ключевых понятий переводоведения и сопоставительного языкознания. На материале английского и узбекского языков рассматриваются её лексический, морфологический, синтаксический и прагматический уровни, а также различия между формальной и динамической эквивалентностью. Особое внимание уделяется влиянию культурных и когнитивных факторов на качество перевода. Результаты показывают, что обеспечение семантической эквивалентности является важным условием сохранения содержания и качества перевода.*

Ключевые слова: *семантическая эквивалентность, теория перевода, динамическая эквивалентность, формальная эквивалентность, прагматическая эквивалентность, когнитивная лингвистика, культурный контекст.*

SEMANTIC EQUIVALENCE IN TRANSLATION: THE LINGUISTIC NATURE OF THE CONCEPT AND ITS IMPACT ON TRANSLATION QUALITY

Abstract. *This article analyzes the linguistic nature of semantic correspondence, one of the key concepts in translation studies, and its impact on translation quality. Using the English and Uzbek languages as examples, the lexical, morphological, syntactic, and pragmatic levels of semantic correspondence are comparatively studied. Additionally, the role of formal and dynamic equivalence, as well as cultural and cognitive factors in the translation process, is highlighted. The research results demonstrate that ensuring semantic correspondence is crucial for preserving the content and quality of the translation.*

Keywords: *semantic correspondence, equivalence, translation theory, dynamic equivalence, formal equivalence, pragmatic correspondence, cognitive linguistics, cultural context.*

Kirish. Til — bu nafaqat aloqa vositasi, balki dunyoqarash, madaniyat va tafakkurning ko‘zgusidir. Har bir til o‘ziga xos semantik tuzilishga ega bo‘lib, mazmunning ifodalanishida o‘z mexanizmlariga tayanadi. Tarjimada yoki tilshunoslikdagi kontrastiv tahlillarda semantik muvofiqlik muhim omil sifatida qaraladi, chunki u ikki yoki undan ortiq tillar o‘rtasida mazmunning to‘g‘ri va to‘laqonli uzatilishini ta’minlaydi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, globallashuv sharoitida tillararo va madaniyatlararo muloqot intensivlashib bormoqda, bu esa tarjima sifatiga qo‘yiladigan talablarni oshirmoqda. Tarjima jarayonida asliyat matnining mazmun-mohiyatini, uslubini va pragmatik yukini saqlab qolish masalasi nazariy va amaliy jihatdan hal etilishi lozim bo‘lgan dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Ushbu maqsaddan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi: 1) semantik muvofiqlik tushunchasining nazariy-metodologik asoslarini yoritish; 2) muvofiqlik darajalarini (leksik, morfologik, sintaktik, pragmatik) ingliz va oʻzbek tili misollari asosida qiyosiy tahlil qilish; 3) dinamik va formal ekvivalentlik yondashuvlarini farqlash; 4) madaniy va kognitiv omillarning semantik muvofiqlikka taʼsirini aniqlash; 5) kompyuter lingvistikasi sohasidagi semantik ekvivalentlik turlarini tavsiflash.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tavsifiy-analitik metod, qiyosiy-tipologik metod va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Semantik muvofiqlik darajalarini aniqlashda ingliz va oʻzbek tillaridagi leksik birliklar, frazeologik iboralar hamda gap qurilishlari qiyosiy tarzda tahlil qilindi. Nazariy manba sifatida tarjimashunoslik (E.Nida, P.Newmark, M.Baker, S.Bassnett, L.Venuti), rus tarjimashunosligi (A.Shveyser, V.Komissarov, S.Vakulenko, L.Zaxarova, Yu.Novoselova) hamda kompyuter lingvistikasi va ontologiyalar nazariyasiga (T.Gruber, J.Euzenat, T.Berners-Lee) oid ilmiy ishlardan foydalanildi. Tahlil uchun misollar tanlashda semantik muvofiqlikning toʻrt darajasini (leksik, morfologik, sintaktik, pragmatik) izchil yoritish tamoyiliga amal qilindi.

Semantik muvofiqlik tushunchasining nazariy asoslari

Semantik muvofiqlik (semantic equivalence) — bu bir til birliklarining boshqa bir til birliklariga mazmun jihatidan muvofiq kelishi yoki yaqinlik darajasidir. Bu tushuncha tarjima nazariyasining asosiy kategoriyalaridan biri boʻlib, har qanday lingvistik axborotda markaziy oʻrinni egallaydi. Muvofiqlik toʻrt asosiy darajada koʻrib chiqiladi: leksik muvofiqlik, morfologik muvofiqlik, sintaktik muvofiqlik hamda pragmatik muvofiqlik. Har bir daraja oʻziga xos til birliklarida namoyon boʻladi va mazmun uzatishdagi aniqlik, izchillik va tushunarlilikka bevosita taʼsir koʻrsatadi .

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili. L.D.Zaxarova mazkur terminni shunday izohlaydi: semantik ekvivalentlik ham butun matnga, ham tarjimadagi alohida birlikka tegishli boʻlishi mumkin. Matn darajasidagi semantik ekvivalentlikka turli usullar orqali erishish mumkin va bu asliyat matn birliklarining tarjima matnidagi birliklar bilan soʻzma-soʻz muvofiq kelishi shart emasligini anglatadi. Matnning semantik ekvivalentligi deganda, asliyat tilidagi matn maʼnosini iloji boricha toʻliq yetkazish nazarda tutiladi; bu maʼno faqatgina asliyat tilidagi tavsiflar emas, balki janr shakli, uslubiy xususiyatlar va konnotatsiyalardan ham iboratdir. Tadqiqotchining fikriga koʻra, tarjimon matn yaratilgan tillar oʻrtasidagi farqlarni yengib oʻtib, originalga yaqinlashishga tarjima ekvivalentlarini tanlash, almashtirish va transformatsiyalardan foydalanish orqali erishadi.

Tarjima birligining (soʻz, grammatik shakl yoki konstruksiya) semantik ekvivalentligi muayyan kontekstda leksik maʼnoning nisbiy mushtarakligini anglatadi — yaʼni asliyat tilidagi birlikni shu kontekstda maʼlum maʼnoda saqlagan holda tarjima tilidagi birlik bilan almashtira olish qobiliyatidir. Til birliklari turli funksional-uslubiy, uslubiy va konnotativ xususiyatlarga ega boʻlgani bois denotativ (asosiy maʼno), konnotativ (qoʻshimcha maʼno), uslubiy va boshqa turdagi ekvivalentlar farqlanadi. Masalan, *smart — dono* yoki *shabby — eski* juftliklari konnotativ ekvivalentlar deb hisoblanadi, chunki ular maʼno va grammatik toifalar jihatdan farq qiladi, ammo mazkur kontekstda emotsional-ekspressiv tus ularning ustun xususiyati hisoblanadi.

Dinamik ekvivalentlik tarjimada maʼnoga asoslangan yondashuv boʻlib, asarning soʻzma-soʻz tarjimasi emas, balki undagi gʻoya va mazmunni ifoda etishga urgʻu beradi. Formal ekvivalentlik esa asarning shakli va mazmuniga qatʼiy rioya qilishga asoslangan tarjima usuli boʻlib, koʻpincha soʻzma-soʻz tarjimalarni keltirib chiqaradi. Madaniy muhit — alohida bir jamiyatda tilning qoʻllanilishi va tushunilishiga taʼsir etuvchi ijtimoiy meʼyorlar, qadriyat va eʼtiqodlar majmuyi boʻlib, tarjima jarayonida muhim oʻrin tutadi.

Semantik ekvivalentlik va uning turli aspektlari qator tadqiqotlarning obyekti boʻlgan: J.Rodriges va boshqalar kompyuter lingvistikasida semantik ekvivalentlikni aniqlash masalasini, F.Ervas tarjimada semantik va pragmatik ekvivalentlikni, Y.Li va boshqalar ingliz-xitoy tili avtomatik tarjima tizimida semantik ekvivalentlik masalasini, V.Malik va T.Vojnar semantik ekvivalentlikni avtomatik aniqlashni, G.Tulaboyeva tarjimada semantik ekvivalentlikning ahamiyatini tadqiq qilishgan boʻlsa, A.D.Shveyser, Ye.Andreyeva, S.Tyulenev, V.Komissarovlarning oʻquv qoʻllanma va monografiyalarida semantik ekvivalentlikning turli masalalari batafsil yoritilgan.

Semantik va formal ekvivalentlikning tarjimadagi oʻrni

Tarjima nazariyasida semantik va formal ekvivalentlik tushunchalari alohida ahamiyatga ega boʻlib, ular turli tarjima usullarining metodologik asoslarini belgilaydi. Semantik ekvivalentlik matndagi maʼnoni, gʻoyaviy yuk va hissiy taʼsirni saqlab qolishga harakat qiladi — bunda soʻzlar yoki grammatik tuzilishga emas, balki xabarning umumiy mazmuniga eʼtibor qaratiladi. Bu usul tarjimaga maʼlum darajada erkinlik beradi va asliyat tilidagi tabiiylik va ravonlikni taʼminlashga yordam beradi. Formal ekvivalentlik usuli esa

original matnning shakli, sintaksisi va leksikasiga yaqin bo‘lib qolishni maqsad qiladi; unda so‘zma-so‘z va grammatik jihatdan aniq tarjima qilishga harakat qilinadi, bu esa ba’zi hollarda tarjimaning sun’iy chiqishiga sabab bo‘ladi. Demak, formal ekvivalentlik tarjimaning yuzaki ko‘rinishini saqlab qolsa, semantik ekvivalentlik undagi ma’noni saqlashga asoslangan yondashuvdir.

Madaniy kontekstning semantik ekvivalentlikka ta’siri

Olingan natijalar va ularning tahlili. Tarjima jarayonida madaniy muhitni hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir til muayyan jamiyatning urf-odatlari, qadriyatlari va dunyoqarashi bilan chambarchas bog‘liq. Ba’zi ifoda yoki iboralar bir tilda ma’noli va ta’sirchan bo‘lishi, boshqa tilga to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjima qilinsa, ma’nosini yo‘qotishi yoki noto‘g‘ri tushunishga olib kelishi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi *“kick the bucket”* idiomasi o‘zbek tiliga so‘zma-so‘z “chemodanni tepmoq” deb tarjima qilinsa, u haqiqiy ma’nosini yo‘qotadi; shu sababli tarjimon “vafot etmoq” degan ma’nodagi sinonimni tanlashi lozim. Bu o‘rinda semantik ekvivalentlikka erishish uchun madaniy farqlar va maqsadli auditoriyaning dunyoqarashi inobatga olinishi shart.

Adabiy matnlarda semantik ekvivalentlikka erishish o‘quvchining matnga munosabati va uni qabul qilishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Agar tarjimon asarning mazmuniy yo‘nalishi, ruhiy holati va emosional yukini to‘g‘ri aks ettira olsa, o‘quvchi tarjima matnini original kabi qabul qiladi; unda qahramonlar bilan hissiy bog‘lanish yuzaga keladi, syujet va g‘oyalar oqilona qabul qilinadi. Semantik ekvivalentlik ta’minlanmasa, o‘quvchi asarning asl mohiyatini to‘g‘ri tushuna olmaydi, bu esa adabiy asarning ta’sirchanligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va muallif niyatini to‘g‘ri qabul qilmaslikka olib keladi.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, tarjimada semantik va formal ekvivalentlikni ajrata bilish va har bir holatda to‘g‘ri yondashuvni tanlash tarjimonning malakasi va uslubiy yechimiga bog‘liq. Ayniqsa, adabiy va madaniy yukka ega matnlarda semantik ekvivalentlik tarjima sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Madaniy kontekstni anglash, tillar va madaniyatlararo farqlarni hamda maqsadli auditoriya ehtiyojlarini inobatga olish orqali yuqori darajadagi semantik ekvivalentlikka — ma’noviy muvofiqlikka erishish mumkin.

Kompyuter metama’lumotlarida semantik ekvivalentlik tushunchasi

Kompyuter fanlari va ma’lumotlarni standartlashtirish sohasida semantik ekvivalentlik — bu turli metama’lumot lug‘atlaridagi ma’lumot elementlarining mazmuniy jihatdan bir-biriga mos yoki o‘xshash ekanligini ko‘rsatuvchi jarayondir. Bu tushuncha semantik veb, ma’lumotlarning o‘zaro mos kelishi va ma’lumot almashinuvi kabi sohalarda muhim o‘rin tutadi hamda ma’lumotlar modellarini birlashtirish, sinovdan o‘tkazish va integratsiyalash jarayonlarida asosiy nazariy vosita hisoblanadi. Semantik ekvivalentlik quyidagi turlarga ajratiladi.

1-jadval. Semantik ekvivalentlik turlari (kompyuter lingvistikasi nuqtayi nazaridan)

№	Ekvivalentlik turi	Izohi
1	Sinf yoki tushuncha ekvivalentligi (Class or concept equivalence)	Ikki yuqori darajadagi konsept, ya’ni tushunchaning o‘zaro mazmunan mos ekanligini bildiradi. Masalan, bir lug‘atdagi “Talaba” tushunchasi boshqa lug‘atda “Student” deb yuritilishi mumkin, lekin ular ma’no jihatdan bir xil real ob’yektni anglatadi — bu holda ular ekvivalent konseptlar hisoblanadi.
2	Xossa yoki atribut ekvivalentligi (Property or attribute equivalence)	Ma’lum bir sinfga tegishli xossalar (atributlar) o‘rtasidagi semantik o‘xshashlikni ifoda etadi. Masalan, bir ma’lumot modelda “birthdate”, boshqasida “dateOfBirt” deb nomlangan atributlar mavjud bo‘lishi mumkin, ular turlicha nomlansa-da, mazmuni jihatdan bir xil ma’lumotni anglatadi.
3	Namuna ekvivalentligi (Instance equivalence)	Ikki ma’lumot namunasi aslida bir ob'yektga taalluqli ekanligini bildiradi. Masalan, “John_Smith_001” va “J.Smith” kabi turlicha ifodalangan ma’lumotlar aslida bir shaxsga tegishli bo‘lishi mumkin — bu holda ular o‘zaro ekvivalent namuna sifatida qaraladi.

Yuqorida keltirilgan jadvaldagi fikrlarni umumlashtirib aytish mumkinki, semantik ekvivalentlik bu faqat nomlar oʻrtasidagi oʻxshashlik emas, balki mazmun va funksiya jihatidan oʻzaro moslikdir. Buni aniqlashda ontologiyalar, semantik toʻrlar (semantic nets) va ma'lumotlar almashinuvi standartlaridan (masalan, RDF, OWL) foydalaniladi. Semantik ekvivalentlikni belgilash ma'lumotlarni avtomatik tarzda qayta ishlash, bir nechta tizimni integratsiya qilish va ma'lumotlar sifatini ta'minlashda muhim oʻrin tutadi.

Muhokama va xulosa. Oʻtkazilgan tahlil shuni koʻrsatadiki, semantik muvofiqlik tilshunoslik, tarjima nazariyasi, kognitiv va madaniy lingvistika hamda kompyuter fanlari nuqtayi nazaridan koʻp qirrali tushuncha hisoblanadi. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

— semantik muvofiqlik toʻrt asosiy darajada (leksik, morfologik, sintaktik, pragmatik) namoyon boʻladi va bu darajalar oʻrtasida iyerarxik bogʻliqlik mavjud; muvofiqlik darajasi ortishi bilan tarjima sifati ham yuksaladi, pragmatik daraja eng yuqori semantik uygʻunlikni ta'minlaydi;

— dinamik va formal ekvivalentlik yondashuvlari tarjimaning ikki qarama-qarshi strategiyasini tashkil etadi: birinchisi ma'no va mazmunga, ikkinchisi shakl va tuzilishga ustuvorlik beradi; adabiy va madaniy yukka ega matnlarda dinamik (semantik) ekvivalentlik koʻproq samara beradi;

Xulosa qilib aytganda, tarjimada semantik muvofiqlikka erishish faqatgina tillar oʻrtasidagi shakliy moslik bilan emas, balki ma'no, uslub va funksiya jihatidan moslash orqali amalga oshiriladi. Tarjimonning malakasi, uslubiy yechimi hamda madaniyatlararo farqlarni anglash darajasi yuqori sifatli tarjimaga erishishning asosiy sharti hisoblanadi. Mavzuning istiqbolli tadqiqot yoʻnalishlari sifatida semantik muvofiqlikning korpus lingvistikasi vositalari asosida miqdoriy tahlili, shuningdek, sun'iy intellekt asosidagi tarjima tizimlarida pragmatik ekvivalentlikni ta'minlash masalalarini koʻrsatish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Захарова Л.Д. Семантическая эквивалентность // Основные понятия переводоведения (отечественный опыт). Терминологический словарь-справочник. – 2010. – №2010. URL: https://cyberleninka.ru/article/n/semanticheskaya-ekvivalentnost (дата обращения: 10.07.2025).

2. Semantic Equivalence. URL: https://library.fiveable.me/key-terms/introduction-to-comparative-literature/semantic-equivalence

3. Rodrigues J., Saedi C., Branco A., Silva J. Semantic Equivalence Detection: Are Interrogatives Harder than Declaratives? // Proceedings of the Eleventh International Conference on Language Resources and Evaluation (LREC 2018), Miyazaki, Japan. – European Language Resources Association (ELRA), 2018.

4. Ervas F. On Semantic and Pragmatic Equivalence in Translation. URL: https://www.academia.edu/25873340/On_Semantic_and_Pragmatic_Equivalence_in_Translation

5. Liu Y., Chen S., Yang Y. Semantic alignment: A measure to quantify the degree of semantic equivalence for English–Chinese translation equivalents based on distributional semantics // Behav Res. – 2025. – №57. – P. 51. DOI: 10.3758/s13428-024-02527-9

6. Tulaboyeva G.T., Gafforov S. Semantic equivalence and its importance in translation. – 2025. DOI: 10.5281/zenodo.15568083

7. Новоселова Ю.А. Семантическая эквивалентность оригинала и перевода // Синергия Наук. – 2020. – №47. URL: http://synergy-journal.ru/archive/article5395